INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

JOMIY HAMDA ALISHER NAVOIY DO'STLIGI, IJODIY HAMKORLIGI XUSUSIDA BERTELSNING ILMIY NUQTAYI NAZARLARI

Hamroyeva Aziza

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Mumtoz adabiyotshunoslik kafedrasi 2-kurs magistranti

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Jomiy hamda Alisher Navoiy o'rtasidagi do'stlik, ustoz-shogirdlik va ijodiy hamkorlik masalalari yoritilgan. Tadqiqotda Yevgeniy Bertelsning ilmiy qarashlari asosida ikki buyuk mutafakkirning adabiy, tasavvufiy hamda ijtimoiy-siyosiy aloqalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning o'zaro munosabatlari Navoiy ijodi va shaxsiy kamolotiga ko'rsatgan ta'siri ilmiy dalillar asosida ochib beriladi.

Kalit so'zlar:

Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Bertels, ijodiy hamkorlik, ustoz-shogirdlik, tasavvuf, Naqshbandiya, Xamsa, mumtoz adabiyot, adabiy aloqalar.

Annotation:

This article examines the friendship, teacher–disciple relationship, and creative collaboration between Jami and Alisher Navoi. Based on the scholarly views of Yevgeniy Bertels, the study analyzes the literary, Sufi, and socio-political connections between the two great thinkers. Furthermore, the influence of their relationship on Navoi's creative development and personal growth is revealed through scientific arguments and textual analysis.

Keywords:

Alisher Navoi, Abdurahmon Jami, Bertels, creative collaboration, teacher–disciple relationship, Sufism, Naqshbandiyya, Khamsa, classical literature, literary relations.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются вопросы дружбы, наставничества и творческого сотрудничества Абдурахмана Джами и Алишера Навои. На основе научных взглядов Евгения Бертельса анализируются литературные, суфийские и общественно-политические связи двух великих мыслителей. Также раскрывается влияние их взаимоотношений на творческое становление и духовное развитие Навои.

Ключевые слова:

Алишер Навои, Абдурахман Джами, Бертельс, творческое сотрудничество, наставничество, суфизм, накшбандия, Хамса, классическая литература, литературные связи.

ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

Kirish

Sharq mumtoz adabiyoti tarixida ijodkorlar o‘rtasidagi adabiy aloqalar, ustoz-shogirdlik an’analari va hamkorlik masalalari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, XV asr adabiy muhiti bu jihatdan nihoyatda boy va serqirra bo‘lib, unda shakllangan ijodiy maktablar keyingi davr adabiy taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratdi. Mazkur davrda yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlar — Alisher Navoiy hamda Abdurahmon Jomiy nomlari Sharq adabiy tafakkuri tarixida o‘chmas iz qoldirgan siymolar sifatida alohida e’tirof etiladi. Ularning o‘zaro do‘stligi, ilmiy-ijodiy hamkorligi va ma’naviy yaqinligi nafaqat o‘z davri, balki keyingi asrlar adabiy jarayoniga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.Alisher Navoiy ijodi o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab bergan bo‘lsa, Abdurahmon Jomiy o‘zining boy ilmiy va badiiy merosi bilan fors-tojik adabiy muhitining yuksalishida muhim o‘rin egallaydi. Bu ikki buyuk ijodkorni nafaqat zamondoshlik, balki mushtarak maqsad va g‘oyalar, tasavvufiy qarashlar, adabiy-estetik tamoyillar ham birlashtirib turadi. Ularning o‘zaro munosabatlari ustoz-shogirdlik an’analarining eng yuksak namunasi sifatida baholanadi. Xususan, Navoiy Jomiyni nafaqat ustoz, balki pir, ma’naviy yo‘l ko‘rsatuvchi sifatida e’zozlagan bo‘lsa, Jomiy ham shogirdining iste’dodi va ijodiy salohiyatini yuksak qadrlagan.

Mazkur masalalarni ilmiy asosda o‘rganish Navoiyshunoslik va Jomiyshunoslik doirasida muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada sharq va g‘arb olimlari tomonidan turli tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ularning orasida mashhur sharqshunos olim Yevgeniy Eduardovich Bertelsning izlanishlari alohida e’tiborga loyiqdir. Bertels o‘z tadqiqotlarida Jomiy va Navoiy o‘rtasidagi do‘stlik va ijodiy aloqalarni keng qamrovda tahlil qilib, ularning adabiy merosini chuqur ilmiy asosda yoritishga harakat qiladi. Olimning qarashlari bu ikki buyuk siymoning o‘zaro munosabatlarini yangicha nuqtayi nazardan talqin etish imkonini beradi.Shuningdek, Jomiy va Navoiy o‘rtasidagi aloqalarni faqat adabiy hamkorlik doirasida emas, balki tasavvufiy qarashlar va ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog‘liq jihatlarda ham o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki ular yashagan davrda tasavvuf ta’limoti, xususan, Naqshbandiya tariqati keng tarqalgan bo‘lib, bu ikki mutafakkirning dunyoqarashi va ijodiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. **[1:168]**

Shu jihatdan qaralganda, ularning o‘zaro munosabatlari faqat shaxsiy do‘stlik emas, balki umumiy ma’naviy va g‘oyaviy birlik asosida shakllangan murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.Ushbu maqolaning dolzarbligi Jomiy va Navoiy o‘rtasidagi do‘stlik va ijodiy hamkorlikni Yevgeniy Bertelsning ilmiy qarashlari asosida qayta tahlil qilish, mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish va mazkur masalaga yangicha yondashuvni taklif etish bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi esa Bertels asarlariga tayanib, Jomiy va Navoiy munosabatlarining mohiyatini ochib berish, ularning adabiy merosi va ma’naviy aloqalarini tizimli ravishda yoritishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili

Alisher Navoiy ijodini o’rganish, uning hayot yo’llari yoki maslakdoshlari-yu ustozlari haqida fikr yuritish har doim ham dolzarb mavzu bo’lib, mas’uliyat bilan yondashishni talab qiladi. Mir Alisher bolaligidanoq g’oyat zehnli bo’lgani ma’lum. Shuning uchun ham yosh shoirning

birgina baytiga Lutfiydek so'z sehrgari tahsin aytgan edi. Umuman olganda bir tomondan Navoiyning noyob iste'dodi, yaratgan asarlari nihoyatda mukammal bitilgan adabiyotimizning durdonalari hisoblansa, ikkinchi tomondan shoh Husayn Boyqaroning yaqin do'sti, sirdoshi va davlat ishlarida doim faol bo'lgan bu siymo xususida olimlarning qiziqish bilan tadqiqotlar olib borishlari tabiiy jarayon edi. Shoir haqidagi yurtimizda olib borilgan e'tirof etishga loyiq bo'lgan ilmiy izlanishlardan biri sifatida Olim Sharafiddinov Ustozning tadqiqotlarini keltirishimiz mumkin.Olim Sharafiddinov Navoiy va uning asarlarini Yevropada o'rganilishi haqida ham chuqur izlanishlar olib bordi. Tadqiqotlari natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, bu buyuk siymo haqidagi izlanishlar asosan yuzaki, biryoqlama xulosalardan nariga o'tmagan. Ayniqsa, M.Nikitskiy va M. Belinlarning Navoiy xususidagi asossiz fikrlarini qoralaydi. Faktik dalillar asosida Alisher Navoiyning ular aytgandek Xusrav, Nizomiy, Jomiylarning taqlidchisi va tarjimachisi emasligini, aksincha, ulardan ham ko'ra orginal asarlar yarata olgan daho ijodkor ekanligini yoritib beradi. [2:99-100]Faqat bugina emas, Yevropada So'z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy xususida :" U bu dunyodan qo'l yuvgan darvesh bo'lgan" qabilidagi nojoiz va haqiqatga umuman mos kelmaydigan uydurmalarni Xondamirning "Makorim ul-axloq" asariga va boshqa yuqorida nomi tilga olingan boshqa asarlardagi ishonchli ma'lumotlar asosida fosh etdi. [2:450]Shuningdek, Olim Sharafiddinov shu vaqtga qadar "Mantiq ut-tayr"(Nikitskiy),"Yusuf va Zulayho","Qissai Sayfulmulk"(Vamberi, V.V.Radlov),"Shayboniynoma"(Berezin),"Maxzan ul-asror"(V.D.Smirnov) kabi asarlarni ham chuqur tekshirmasdan Navoiy qalamiga mansub asarlar sifatida sanab o'tgan olimlarning fikrlarini ham inkor qilgan va yuqoridagi asarlarning mualliflarini keltirib o'tadi**.[4:95]**

Muhokama

Bunday izlanishlar qatorini uzoq davom ettirish mumkin. Ammo ularning ichida Yevgeniy Eduardovich Bertelsning qilgan tahlil-u tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Uning yozishicha, Navoiy ustozlarini doim hurmat-ehtirom bilan tilga oladi. Ayniqsa, ham ustozi, ham Piri, ham eng yaqin do'sti bo'lgan Jomiyning ta'rif-u tavsifini barcha asarlarida keltiribgina qolmay, hayotda ham doim dildosh bo'ladi. Manbalardan Jomiy va Navoiy qachon tanishganlari, ilk uchrashish tavsilotlari haqida aniq bir ma'lumotni uchratish qiyin. Hatto barcha masalalarga kalit bo'ladigan ijodkorning o'z asarlarida ham bu xususda aniq bir vaqtni keltirmagan. Ko'plab Navoiyshunoslar, xususan, Bertels ham Jomiy va Navoiyning dastlabki uchrashuvini 1469-yildan keyin – ya'ni Navoiy Hirotga qytganidan keyin sodir bo'lgan deb hisoblaydi. Nima bo'lganda ham bir yurtdagi ikki buyuk iste'dodning tanishmasdan, yuzlashmasdan yashashi mumkin ham emasdi,aslida. Bu tanishuv, bu uchrashuv Navoiy ijodida ham, hayot tarzida ham o'zgarishlarga sabab bo'ldi: ya'niki, 1476-1477-yillarda Navoiyning Naqshbandiya tariqatiga o'tadi, Jomiyni esa pir-u komil deb e'lon qiladi. Shu yo'l bilan ular o'rtasidagi do'stlik chuqurroq ildiz ota boradi.

Bertels Jomiyning ham tariqatga qanday kirib qolganini izohlaydi: ya'ni shoir yoshligida juda zehnli, iqtidorli yigit bo'lganligini e'tirof etgan Bertels bu ijodkor tariqat yo'liga kirgandagina erkin ijod qila olganini ham keltiradi. Tadqiqotchining fikrlariga ko'ra Jomiy va Navoiyning tariqat yo'lidagi birlashuvi Navoiy ijodida ham, hayot tarziga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Tadqiqotchi shoirning ustozi Jomiy bilan ijodiy hamkorligini ham alohida talqin qiladi.Navoiyning "Xamsa" asarini yozib tugallagach Ustoziga olib borgani, Jomiy esa bu asarga yuksak baho berganini "Saddi Iskandariy"da shunday keltiradi:

Chekib "Xamsa"ni juzvdondinravon,

Qo'yub xizmatida meni notavon.

Necha ganjkim oshkor aylabon,

Ayog'iga borin nisor aylabon.

Nazar soldi ochib varaq-barvaraq,

Bo'lib multafit,chun ochib har varaq.

Qayu so'zdakim bir savol aylabon,

Javobin degach zavq-u hol aylabon.

Qilib goh tahsin-u,gohi duo,

*Ki yuzdin biri yo'qmanga muddao.**[1:570-574]***

Bu misralardan-deydi Bertels,-Jomiy Navoiyning "Xamsa"sini o'qigani, ya'ni eski o'zbek tilini tushungani ochiq –oydin namoyon bo'ladi.

Navoiy kamtarinlik bilan Jomiy o'zi haqida qanday fikr bildirganini ochiq aytmaydi. Bu holatni Bertels Jomiyning o'z asaridan dalil keltirib, aniqlashtirib ketadi. Jomiy "Xiradnomayi Iskandariy"da shunday yozadi:

Bunday yoqimli naqsh tushirgan qalam,

Boshiga ofarin yog'dirsin olam.

Kechirsin forsiyda gavhar terganlar,

Dariy tilida dur,g'azna berganlar.

Buning tili ham gar bo'lganda Dariy,

Majolsiz qolardi ularning bari.

Bu mo'jiza mezon o'lchasa agar,

ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index:* *google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

*Kim bo'lar Nizomiy, Xusrav kim bo'lar**?[2:499]***

-deya o'z shogirdi va do'stiga yuksak baho beradi.

Ammo Jomiyning nasihatlari faqat adabiyot bilan, faqat badiiy ijod bilan to'xtab qolmagan. Avoiyning ijtimoiy-siyosiy hayotida ham Jomiyning nasihatlari muhim hisoblangan. Bunga misol tariqasida Bertels bir voqeani keltiradi: Sulton Husayn Qunduzga yurish qilmoqchi bo'lganda,uning bu hatti-harakati irotda qo'llab-quvvatlanmaydi.Ammo bu ziddiyatli vaziyatda Navoiy hukmdor do'stining yonida bo'ladi.Safarga ketish oldidan ustozidan duo olgani kelgan shoirga Ustozi shunday deydi:"imkon boricha bu yurishga to'sqinlik qil va buning iloji bo'lmasa, meni bundan xat rqali xabardor qil"[3:41]

Umuman olganda Jomiy va Navoiy siymolari do'stligi ularning hayot shamlari so'lgunicha davom etadi. Ularning ijodiga xos bo'lgan umumiy prinsip badiiy asarda ma'noning shakldan ustunligi edi,o'zlari ham mazmuni mo'tabar asarlar yarata olgan bu ikki buyuk mutafakkir ijodkorning hamkor, hamijod bo'lganligi sabab ham adabiyotimiz gulshani sara asarlar bilan bezandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy .Mukammal asarlar to'plami.11-tom."Xamsa". Saddi Iskandariy.-T.;FAN,1993,570-571-b.
2. Abduraxmon Jomiy.Haft avrang,499.
3. Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyirin,l.41.
4. Bertels Navoiy.-T.;Tafakkur qanoti,2015.

.